

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995–yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, B.Q.Qurbonova	
Talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish	7
G.G'.G'affarova	
Raqamli jamiyatning intellektual madaniyati: falsafiy tahlil.....	13
K.D.Yarashev	
Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligidagi talabalarda boshqaruv kompetentligining tavsifi.....	17
A.A.Rayimov	
O'quvchilarda akkulturatativ ko'nikmalarni rivojlantirishda madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy-pedagogik zarurati	21
O.A.Ashurova	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning metodik ta'minoti	25
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	30
S.S.Ulkanov	
Transport vositalari muhandisligi yo'nalishi talabalarining bilim olishlarida zamonaviy o'quv-didaktik vositalar asosida o'qitishning afzalliklari	35
T.M.Burxanov	
O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari akademiyasi kursantlarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va diniy qarashlarining statistik tahlili	40
U.R.Radjapov	
Maktablarda yengil atletika musobaqalarini o'tkazishning oddiy qoidalari.....	44
Sh.A.Mamajonov	
Ekologik tarbiyalanganlik-jamiyat va uning taraqqiyoti uchun muhim omildir	48
F.K.Yusupova	
Talabalarining ijodkorlik faoliyatlarini rivojlanishida texnik ijodkorlikning o'rni	53
O.O.Qodirov	
O'quvchilarda kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning o'ziga xosligi va zaruriyati	58
M.M.Mamatkodirov	
Maktab ta'limida raqamli texnologiyadan foydalangan holda o'qitish usullarini takomillashtirish	63

IQTISODIYOT

X.X.Bozarov	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida tarmog'i bo'yicha ixtisoslashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	70

FALSAFA

I.A.Suvanov	
Globalashuv sharoitida xavfsizlik va barqarorlikka rahna soluvchi mafkuraviy tahdidlar	76
A.N.Meliboyev	
Kambag'allikka qarshi kurash strategiyasi orqali yangi O'zbekistonda farovon jamiyat qurish istiqbollari	83
G'.Z.Abduraxmonov	
G'oyaviy birlashuv tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari.....	88
S.S.Jabborova	
O'zbekistonda jamiyatning ma'naviy salohiyati va uning ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashdagi roli	93

GIPOTEK-DEDUKTIV METOD ORQALI BO'LAJAK PEDAGOGLARDA ANALITIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ С ПОМОЩЬЮ ГИПОТЕТИКО-ДЕДУКТИВНОГО МЕТОДИКА****THE ORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING ANALYTICAL THINKING IN FUTURE EDUCATORS THROUGH THE HYPOTHETICAL-DEDUCTIVE METHOD****Aliyev Nizomiddin Maxmasaitovich¹**¹Aliyev Nizomiddin Maxmasaitovich

– Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotasiya

Mazkur maqolada gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, analitik tafakkurni rivojlantirishda dialektik uslubning ham samaradorligi yuqori hisoblanishi hamda pedagogik jarayonda tafakkur uslublarini mushtarak holda qo'llashga o'rgatish, rivojlantirish to'g'risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье рассмотрены теоретико-методологические основы развития аналитического мышления у будущих педагогов посредством гипотетико-дедуктивного метода, высокая эффективность диалектического метода в развитии аналитического мышления, развитие обучения использованию стилей мышления в представлении педагогического процесса в общепринятой форме.

Abstract

This article presents information about theoretical and methodological foundations for the development of analytical thinking in future teachers through the hypothetico-deductive method, the high efficiency of the dialectical method in the development of analytical thinking, the development of training in the use of thinking styles, and presents the pedagogical process in a generally accepted form.

Kalit so'zlar: gipotetik-deduktiv, yangi taraqqiyot, tafakkur ko'nikmalari, innovasion g'oyalar, mantiqiy fikrlash, individual sifatlar, barkamol inson, ta'lim standartlari, aqliy faoliyat turi, ilmiy-metodik.

Ключевые слова: гипотетико-дедуктивное, новое развитие, мыслительные способности, инновационные идеи, логическое мышление, индивидуальные качества, совершенный человек, образовательные стандарты, вид мыслительной деятельности, научно-методический.

Key words: hypothetical-deductive, new development, thinking skills, innovative ideas, logical thinking, individual qualities, perfect person, educational standards, type of mental activity, scientific-methodical.

KIRISH

Jahon global axborot makonida analitik tafakkur ko'nikmalari rivojlangan kadrlarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Tafakkur qilishning mantiq bilan qat'iy bog'langan, narsa va hodisalarni aniq, to'g'ri, obyektiv, har tomonlama tahlil etishga qaratilgan aqliy faoliyat turi bo'lmish analitik tafakkurni rivojlantirish va shu asosida yoshlarda ijtimoiy hayotning hamma sohalarini bo'yicha tahlil qilish, munosabat bildirish, o'tmishni anglash, bugunni idrok etish, kelajakni bashorat qilish, taraqqiyotning istiqbolli yo'llarini belgilash imkonini beradigan sarmahsul fikrlash tarzini tarbiyalash imkoniyatini yaratish zarurati dolzarblik kasb etmoqda. Buning uchun esa, ta'lim tizimida mustaqil fikrlaydigan, har qanday muammoga tezlik bilan, oqilona yechim topa biladigan, fikriy qaramlikdan yiroq yangi avlodni tarbiyalash vazifalari yuzaga kelmoqda. Shuning uchun ham bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish asosida innovatsion g'oyalarni ilgari surish, yangi texnologiyalarni yaratish va amaliyotga tatbiq etishga undaydigan yaratuvchan fikrlash tarzini rivojlantirish muhim ilmiy-pedagogik vazifalardandir.

Dunyoning rivojlangan ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida analitik tafakkurni rivojlantirish asosida tahliliy fikr yuritish san'ati, biror muammo, masala, axborot, voqea-hodisani o'rganish jarayonida u haqda atroflicha, aniq, teran, chuqur, mazmundor, mustahkam to'xtamga kelish qobiliyati rivojlangan kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu asosida yangi axborot izlab topish, uni o'rganib, tizimga solish, taqqoslash, baholash, mantiqiy fikrlash, dalillarga tayanish, mavjud axborotlarga tanqidiy qaray olish, olingan ma'lumotlar asosida to'g'ri to'xtamga kelish ko'nikmalari rivojlangan kadrlarni

PEDAGOGIKA

tayyorlash mumkin bo'ladi. Ayniqsa, taraqqiyotning hozirgi darajasi har qanday kasb egasidan analitik tafakkur asosida o'xshatish, qiyoslash, qismlarga ajratish, umumlashtirish, tizimlash, modellashtirish, tasniflash, mo'ljal qilish orqali o'z faoliyatini rejalashtirishni talab qiladi. Shuning uchun bo'lajak kadrlarda tezkor qaror qabul qilish, vaziyatga tez moslashish va analitik tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishga ahamiyat qaratish muhim vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ham "yoshlarning ong-u tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa" hamda "xalqaro maydonda munosib o'rin egallash yo'lida zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan islohotlarni amalga oshirish milliy taraqqiyot strategiya" sining bosh maqsadlaridan biri sifatida belgilanganligi ham teran tafakkurli va ma'rifatli yoshlarni tarbiyalash zaruratini yuzaga keltiradi. Buning uchun esa oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarda teran tafakkur tarzini shakllantirish, analitik tafakkurni rivojlantirishning metodik tizimini modernizatsiyalashga alohida ehtiyoj sezilmoqda. Jumladan, bo'lajak pedagoglarning muammoli vaziyatlarga to'g'ri yondasha olmasligi, hayotiy xulosalar yasashda tor fikr yuritishi, kasbiy kompetentligining zaifligi va boshqa shu kabi ta'limiy muammolar analitik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish borasida yetarlicha ilmiy-amaliy hamda metodik ishlar olib borilmayotganidan dalolat beradi. Shu bois bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini shakllantirishda gipotetik-deduktiv metod imkoniyatlaridan foydalanish va shu asosida zamonaviy kadrlar avlodini tarbiyalash tizimini yaratish vazifalari yuzaga kelmoqda.

Eng avvalo, «tafakkur» tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. «Falsafa: qomusiy lug'at»da «tafakkur» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Tafakkur (arab. – fikrlash, aqliy bilish) – predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o'rtasida ichki, zaruriy aloqalar, qonuniy bog'lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi».[1]

Psixologiya fanlari doktori, professor E.G'oziyev esa, mazkur tushunchaning mohiyatini quyidagicha izohlaydi: «Tafakkur inson aqliy faoliyatining, aqliy zakovatining, ongli harakatining yuksak shakli hisoblanadi. Tafakkur tevarak-atrofnii, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, insonning keng ko'lamdagi faoliyatini oqilona amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi» [2].

Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bavo-sita (bilvosita) aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqea va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rish imkoniyatiga ega.

Bo'lajak pedagoglarda rivojlantirish talab etilayotgan analitik tafakkur murakkab fikrlash uslubi bo'lib, uning shakllanishi axborotni passiv qabullashdan boshlab muayyan muammolar yechimiga mustaqil kelishga qadar turli bosqichlarni bosib o'tadi. Tanqidiy tafakkur asl ma'nodagi talabalarda kuchli rivojlangan bo'ladi. Demak, biz o'z talabalarimizni yuksak analitik tafakkurga ega mutaxassislar sifatida tarbiyalay olishimiz uchun unda avvalo tanqidiy fikrlash qobiliyatini uyg'otish va rivojlanish uchun shart- sharoit yaratishimiz kerak. Bunda pedagogning ma'ruzalaridagi tanqidiy ruh, tafakkur tarzi eng muhim va zaruriy shart-sharoit, zamin, asos bo'lib xizmat qiladi.

NATIJALAR

Lekin tanqidiy tafakkur oson va tez emas, balki muayyan bosqichlarni bosib o'tadigan murakkab nazariy va didaktik jarayon bo'lgani uchun pedagogdan muayyan metodik tayyorgarlikni taqozo etadi. Pedagogik jarayonda tanqidiy tafakkurni shakllantirish asosan quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

- tanqidiy tafakkur uchun shart-sharoit, zamin yaratish.
- tanqidiy fikrlashga taklif etish.
- materialni tanqidiy anglab yetish.

Bugungi kun ta'lim analitik tafakkurga urg'u berish orqali bo'lajak kadrlarda quyidagilarni rivojlantirishni maqsad qilmoqda:

Aqlning peshqadamligi belgilangan muddatda ko'pchilik o'ylab ko'rishga ulgurmaydigan muammolar bo'yicha bir emas, balki bir necha yechimlarni ko'rsata olish hamda ularning barchasining o'ziga xos salbiy va ijobiy tomonlarini asoslab bera olish qobiliyatidir.

Tafakkurning egiluvchanligi jamiyatda qabul qilingan va an'anaviy mavjud bo'lgan, aslida to'g'ri deb o'ylangan shablon yo'nalishlar va tamoyillarning zamonaviy taraqqiyot uchun javob bera olmay qolganligini anglash, yangi yo'nalish va choralarni sezish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira bilish, o'z faoliyatini yangidan qura olish va masala yechimining yangi yo'nalishlariga o'zini safarbar eta olishdir.

Prognoz, bashorat qila olish esa o'z sohasi rivojidadagi istiqbol o'zgarishlar mohiyati, kelib chiqish sabablari va yuzaga kelish muddatlarini tafakkur tahlili orqali oldindan anglash tafakkuri hisoblanadi. Masalan, mehnat unumdorligining ko'tarilishi va pasayishi, konyunktura yoki bozorning o'zgarishi hamda mazkur o'zgarishlarning sohaga bo'lgan ta'siri, narxlarning ko'tarilishi va pasayishi va hokazo.

Analitik tafakkurni kreativlik asosida rivojlantirish tamoyillari tasnifi

T/r	Analitik tafakkurni rivojlantirish tamoyillari	Mazmuni
1.	Analitik tahlil	Analitik tahlil jarayoni – tayyorgarlik, axborotlarni yig'ish va tahlil qilish. Mavjud ahvol tahlili, axborotlarni umumlashtirish, ko'rsatkichlarni taqqoslash.
2.	Konsentratsiya	Konsentratsiya jarayoni – muammo atrofida aqliy salohiyatning mujassamlashuvi, ma'lum faktlar, ular sistemasi tahlili. Aqliy salohiyat yetishmovchilik jarayonidan o'tish. Mazkur jarayonni bosib o'tishga intilish. Ong faolligining dam-badam ko'tarilishi yoki pasayishi. Insonning muammo tahliliga berilishi, natijada turli yangi nostandart g'oyalarning tug'ilishi va shakllanishi.
3.	G'oyalar inkubatsiyasi	G'oyalar inkubatsiyasi jarayoni – aqliy konsentratsiya jarayonida yuzaga kelgan barcha mavjud g'oyalar ong ortiga o'tib, ular mudroq holga keltiriladi. Tafakkur qilish jarayonida ular metodologik asoslarda qayta tahlildan o'tkaziladi. Shaxsiy senzura yangi g'oyalarning barchasini axloqiy-ma'naviy va qadriyatlar nuqtai nazaridan nazoratdan o'tkazadi. So'ng mazkur g'oyalar pishib yetilgan tarzda inson psixikasiga o'tkaziladi.
4.	G'oyalar qidirish	G'oyalar qidirish yo'lidagi past-balandligi, to'liqlik taraqqiyot jarayoni – g'oyalar tahlilini amalga oshirilganda inson tafakkuri o'zini tinch va osuda tutmaydi, balki turli keskin harakatlarga moyil bo'ladi. Shu bois odam birdaniga bir mavzuga, saldan keyin boshqa bir mavzuga o'tib ketadi.
5.	Analiz va sintez	Analiz va sintez jarayoni – kreativ tafakkur faoliyat natijalarini tahlil qilish jarayoni. Mantiqiy tahlil jarayoni. Bu davrda pishib yetilgan barcha g'oyalar yaxlitlik va umumiylikda tahlildan o'tkaziladi. Hamda kreativ tafakkur mehnatining natijasi sifatida so'nggi qaror qabul qilinadi. Mazkur kreativ tafakkurning amal qilish va ish olib borish uslubiyatiga doir qarashlar uning uzoq davom etishini emas, balki qanchalik murakkab jarayon ekanligini, shu bilan birga, tezlik bilan amalga oshirilishini anglatadi.

Analitik tafakkur uslubi biluvchi subyektning dunyoqarashi va metodologik prinsiplar xarakteri bilan uzviy bog'langandir. Shuning uchun dunyoqarash va metodning o'zgarishi, tafakkur usulining o'zgarishiga olib keladi. Binobarin, tafakkur usuli shakllanish jarayonida metod va dunyoqarashga aks ta'sir etadi, ilmiy bilish sohasida u yoki bu vazifani hal qilish bilan bizning oldimizga yangi vazifalarni qo'yib, yangicha hal qilishga undaydi. Muayyan masala hal qilinishi bilan u yangi tafakkur jarayoniga ta'sir etadi. Shu o'rinda tafakkur uslubining ijodiylik, faollik xususiyati namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, turlicha tafakkur usullari mavjud va ularning har biri haqiqatni ochib bera oladigan tafakkurning universal usuli o'rnini bosishga harakat qiladi. Lekin, «ularning ko'pchiligi tarixiy taraqqiyot jarayonida yangi davr talabiga javob bera olmaganligi uchun muayyan darajada inkor etildi. Sofistik, eklektik, metafizik, mexanistik, metafizik va boshqa tafakkur usullari shular

PEDAGOGIKA

jumlasidandir. Garchand ular bugungi kunda ham stixiyali tarzda, ahyon-ahyonda qo'llanilsada, ammo zamonaviy tafakkurning ustuvor usuli bo'la olmaydi. Xuddi shunday dialektik va bugungi kunda ko'pchilikning e'tiborini tortayotgan sinergetika usullar xam inson tafakkurining mutlaq, yakkayu-yagona uslubi bo'lib qolishi dargumon. Ular ham umuminsoniy tafakkur «pillapoya»larida o'z o'zni va ahamiyatiga ega boshqa usullar qatoridan o'ziga xos joy egallaydi».[3] Insoniyat bu usullarning har birini kerakli sohada va zarur bo'lganida ishlatishni o'rganib olgan hamda amaliyotda bu tajribaga tayanib, faoliyat yuritaveradi.

Quyida tafakkur usullarining turlari va ularning kelib chiqishi, mazmun-mohiyati va o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan:

MUHOKAMA

Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda fikriy taraqqiyotda tafakkur tarzini o'zgarishi va fikrlashda ma'lum bir usublarning shakllanish jarayonini o'ranish, tafakkur usublarning ahamiyatli jihatlari o'rganish ham samarador hisoblanadi. Xususan, sofist tafakkur uslubini o'rganish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Sofistik tafakkur ko'pgina darslik va qo'llanmalarda bu ibora yunon tilidagi «sopism» so'zi asosida, ya'ni ataylab xilma-xil ma'noga ega bo'lgan tushunchalarni ishlatish orqali kerakli, ammo haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, ko'chma ma'no-mazmunga erishish usuli, deb ta'kidlanadi. Bu usul qo'llanilganda fikrning mazmuni ko'chma ma'noda bayon qilinadi, ya'ni «Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit» deganga o'xshash holat tutiladi. Keyinchalik esa bu so'z asta-sekin boshqacha mazmun kasb eta boshladi: notiqlik va donishmandlikda nom chiqargan mutafakkirlarni sofistlar deb atay boshladilar. Undan keyingi davrlarda esa so'z bilan kishilarning boshini qotirish usullarini ustalik bilan qo'llab, ularni chalg'itadigan odamga nisbatan ham sofist iborasi qo'llangan. Hozirgacha ham «sofistlar», tushunchasi ana shu, eng oxirgi ma'noda qo'llanib va tushunilib kelmoqda. So'nggi ma'noda sofistlar so'z va iboralarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish va to'qnashtirish yo'li bilan, ularning sirli ma'nosi va ahamiyatini ochish orqali haqiqatni bilish mumkin, deb tushunar edilar. Sofistik tafakkurda bir xil tushunchalar, so'zlar, iboralarning boshqalari bilan shaklan bog'lanishi birinchi o'ringa o'tadi. Bu aslida ma'nosiz so'z o'yinidan boshqa narsa emas. Sofistik tafakkur obyektiv asosga ega bo'lgan so'zlar, tushunchalar bilan qiziqmaydi.[4] Shuning uchun ham sofistika so'zlar doirasiga o'ralib qoladi.

Boshqa bir tafakkur uslubi metafizik tafakkur hisoblanadi. Metafizik tafakkur asosan, narsalar, ularning mohiyati va mazmuniga asoslanib fikr yuritadi. Mana shu ma'noda tafakkurning metafizik metodi sofist tafakkurdan farq qiladi. Mazkur uslub metafizika olamdagi narsa va hodisalarni o'rganishda ularning muayyan vaqt davomida nisbatan o'zgarmasdan, alohida turgan holatiga diqqatni ko'proq qaratadigan usuldir. Bu usul qo'llanganida olamning namoyon bo'lish shakllari hamda ular bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarning alohida qismi yoki holatiga asosiy e'tibor beriladi. Tabiat jismlarini mukammal o'rganish, ularning mohiyatini chuqurroq ochib borishga intilish – metafizik tafakkur uslubining ijobiy tomonini tashkil etadi. Uning asosiy kamchiligi tabiatdagi narsa va hodisalarni o'zaro bir-biri bilan aloqador bog'liqlikda, ularning uzluksiz o'zgarish va rivojlanishda ekanligini e'tiborga olmasligidir.

Aslini olganda olam garchand dialektik o'zgarish va harakatda bo'lsa-da, bu jarayon doimo ham nihoyatda tez sodir bo'lavermaydi. Biz esa dunyodagi narsa, hodisa va odamlarga shunchalik metafizik tarzda o'rganib qolganmizki, go'yo kechadan bugunning farqi yo'qdek, kecha ko'rgan kishiga bugun duch kelganimizda unda hech qanday o'zgarishlar bo'lmaganday tuyuladi. Shu ma'noda, hayotda ko'p hollarda metafizik usulda fikr yuritimiz, nimalargadir ana shunday munosabatda bo'lamiz. Aslida esa ular ham azaliy o'zgarishlar jarayoniga tushgan narsa va kishilar ekanligini juda kamdan-kam hollarda o'ylab ko'ramiz. Xuddi shunday, bizning umrimiz ham kechadan ertaga qarab oqib turadigan dialektik jarayondir.[5] Biz ham ana shunday o'zgarib boramiz, ammo ko'p hollarda bunga unchalik ko'p e'tibor berilavermaydi.

Boshqa bir tafakkur uslubi eklektik tafakkur tarzi hisoblanadi. Eklektik tafakkur muhim va nomuhim bo'lgan, asosiy va ikkinchi darajali bog'lanishlar o'rtasidagi farqni unchalik hisobga olmaydigan, narsalarning turli-tuman, ko'pincha qarama-qarshi tomonlariga nisbatan nuqtai-nazari ko'proq noaniq tamoyillarga asoslanadigan usuldir. Eklektika narsa va hodisalarning turli tomonlari va xossalari mexanik ravishda birkitradi va ularga "bir tomondan" yoxud "ikkinchi tomondan" degan noaniqroq xulosalar chiqarish prinsipiga amal qiladi. Olamdagi, narsa va hodisalarning munosabatlari majmuidagi konkret-tarixiy aloqadorlik, real harakat, o'zgarish va

rivojlanish jarayonidagi asosiy hal qiluvchi jihatlarni ajrata bilmaslik elektik tafakkurning asosiy metodologik nuqsoni deb hisoblanadi.

XULOSA

Analitik tafakkur uslubining umumiy asosi bo'lgan mantiqiy tafakkur ham samarali usul hisoblanadi. Mantiqiy fikrlash usuli — mantiq qonun-qoidalari asosida hosil qilinadigan bilim, ya'ni mantiqiy tafakkur mohiyat e'tibori bilan subyektiv, noto'g'ri talqinni istisno etadigan, obyektiv aloqadorlik asosida bir fikrdan ikkinchi fikrga o'tishda, ya'ni to'g'ri fikrlashga asoslangan tafakkurga asoslanadi. Mantiq muhokama jarayonida fikrlarimizdagi hal qiluvchi aloqadorlik qonunlarini tahlil qiladi, ularga ko'ra haqiqatni hosil qilish uchun asoslanishimiz lozim bo'lgan qonun-qoidalarni shakllantiradi. Bu borada ushbu qonun-qoidalar asosida to'g'ri fikrlash mantiqiy haqiqat hosil qilishning zaruriy shartidir. Shu ma'noda mantiqiy tafakkurni o'rganish va uning qonun-qoidalari qat'iy rioya qilish inson tafakkuri, bilimi va analitik tafakkurini rivojlantirishning zaruriy omili hisoblanadi. Uni bilish muhokamada aniqlik, xulosa va mulohazalarda haqiqatga erishish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilganda, jamiyatning rivojlanishi mavjud ilmiy-texnikaviy salohiyatdan to'laqonli foydalanish, innovatsiyalarni iqtisodiyotgagina emas, balki ta'limning barcha turlarida ham samarali joriy etish imkoniyatlari bilan bevosita bog'liq. An'anaviy kasblar tarkibida, yoshlarning kasb tanlashida qadriyatlar va mo'ljallar tizimi hamda mehnatni tatbiq etish sohalarida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Bularning barchasi mutaxassislarining yangicha tipi – analitik tafakkur uslubiga ega bo'lgan raqobatbardosh kadrlar zaruratini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR RO'XATI

1. Фалсафа: қомусий луғат (Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров). – Т.: Шарқ, 2004. – Б. 390.
2. Ғозиев Э.Ғ. Тафаккур психологияси. – Т.: Уқитувчи, 1990. – Б.3.
3. Conley, David T. Toward a More Comprehensive Conception of College Readiness. Educational Policy Improvement Center. 16 May 2011. <http://epiconline.org/files/pdf/Houston%20A+%20Friday%202-15-088.pdf>
4. Фалсафа қомусий луғат. Тошкент.:Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2004, -Б. 26.
5. Фалсафа қомусий луғат. Тошкент.:Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2004, -Б. 26.